

**REPRODUKTIV TEXNOLOGIYALAR: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR,
IMKONIYATLAR VA ETIK MUAMMOLAR**

*Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti
Davolash ishi yo'nalishi 3 - kurs talabasi
Abdurahmonova Dilnoza*

Annotatsiya. Ushbu maqolada reproduktiv texnologiyalar tushunchasi, ularning asosiy turlari, qo'llanilish sohalari hamda bioetik, huquqiy va ijtimoiy jihatlarini ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tibbiy-biologik taraqqiyot jarayonida shakllangan ushbu texnologiyalar insoniyatga bepushtlik muammosini bartaraf etish, genetik kasalliklarning oldini olish va sog'lom avlodni shakllantirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shuningdek, maqolada reproduktiv texnologiyalarning qo'llanilishiga nisbatan jamiyatda mavjud bo'lgan turli qarashlar, axloqiy baholar va diniy munosabatlar kontekstida tahlil etiladi. Tadqiqotda zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida tanqidiy yondashuv, taqqoslov tahlil usullari hamda muammoli yondashuv metodologiyasidan foydalanilgan.

Аннотация. В этой статье концепция репродуктивных технологий, основные типы их основных типов, областей и биологических, правовых и Социальные аспекты анализируются с точки зрения научного теоретизации. Эти технологии, сформированные в процессе обучения медицинскому развитию Устранение проблемы бесплодия для человечества, получения генетических заболеваний и образования здорового поколения создает достаточные возможности. Кроме того, статья содержит относительно использования репродуктивных технологий, моральных оценок и религиозных отношений Анализируется в контексте. Основываясь на современной научной литературе в исследовании, методах анализа сравнения, а также проблематичным подходом Используемая методология.

Annotation. In this article, the concept of reproductive technologies, the main types of their main types, areas, and bioetic, legal and Social aspects are analyzed from a scientific-theorist point. These technologies formed in the process of teaching medical development Eliminating the problem of infertility for humanity, receiving genetic diseases and formation of a healthy generation is creating ample opportunities. Also, the article contains relative to the use of reproductive technologies, moral grades, and religious relations Analyzed in the context. Based on modern scientific literature in the study, comparison analysis methods, as well as problematic approach used methodology.

Kalit so'zlar: reproduktiv texnologiyalar, bepushtlik, in vitro, bioetika, surrogatlik, donorlik, genetik skrining.

Ключевые слова: репродуктивные технологии, бесплодие, in vitro, Биотика, страница, пожертвование, генетический скрининг.

Keywords: reproductive technologies, infertility, in vitro, Bioethika, insiring, donation, genetic screening.

So‘nggi o‘n yilliklarda biotibbiyot va genetik muhandislik sohalaridagi ilg‘or yutuqlar tufayli inson reproduktiv salohiyatini boshqarish borasida ilgari imkonsiz deb hisoblangan usullar hayotga tatbiq etilmoqda. Reproductiv texnologiyalar (RT) bugungi tibbiyotda muhim o‘rin egallab, bepushtlikni davolash, genetik xavf omillarini aniqlash, irsiy kasalliklarning oldini olish va oilaviy rejalashtirish sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, bu texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan etik, diniy va huquqiy muammolar jamiyatda keng muhokama qilinmoqda.

Reproduktiv texnologiyalar va ularning turlari Reproductiv texnologiyalar - bu insonning biologik ko‘payish qobiliyatini sun‘iy yo‘l bilan ta‘minlashga qaratilgan muolajalar tizimidir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) RTni quyidagi asosiy shakllarga ajratadi:

1. Sun‘iy urug‘lantirish (AI – Artificial Insemination): erkak urug‘i (sperma) ayolning bachadoniga yoki bachadon bo‘yin qismiga sun‘iy yo‘l bilan kiritiladi.
2. In vitro urug‘lantirish (IVF – In Vitro Fertilization): tuxum hujayra va spermatozoid laboratoriya sharoitida urug‘lantirilib, hosil bo‘lgan embrion ayolning bachadoniga ko‘chiriladi.
3. Intratsitoplazmatik spermatozoid in‘eksiyasi (ICSI – Intracytoplasmic Sperm Injection): spermatozoid to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuxum hujayra ichiga kiritiladi.
4. Donorlik texnologiyalari: spermatozoid, tuxum hujayra yoki embrion donorlik asosida ishlatiladi.
5. Surrogatlik (surrogat ona): boshqa ayol homilani ko‘taradi va tug‘adi, lekin u bolaning genetik onasi bo‘lmaydi.
- 6.

Zamonaviy qo‘llanish sohalari RT tibbiyotning ko‘plab yo‘nalishlarida, ayniqsa, reproduktiv salomatlik, onalik va bolalikni muhofaza qilish, irsiy kasalliklarni profilaktika qilish, hamda demografik muammolarni hal etishda muhim rol o‘ynamoqda. PGD (Preimplantatsion Genetik Diagnostika) yordamida embriondagi genetik muammolar aniqlanib, sog‘lom embrionlar tanlab olinadi. Shu tariqa, irsiy kasalliklarning nasldan naslga o‘tishi xavfi kamayadi.

Reproduktiv texnologiyalarning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati RTning ijtimoiy ahamiyati, avvalo, bepusht oilalarga psixologik va ijtimoiy barqarorlikni qayta tiklash imkonini berishidadir. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har 7-juftlikdan

biri bepushtlik muammosidan aziyat chekmoqda. Bundan tashqari, RT yordamida erkaklar va ayollar o'zlarining genetik avlodini davom ettirish imkoniga ega bo'lmoqda. Iqtisodiy jihatdan esa, RT markazlarining faoliyati yangi tibbiy xizmatlar bozorini shakllantirib, ilmiy-tadqiqotlar uchun keng maydon yaratmoqda.

Bioetik va huquqiy muammolar Reproduktiv texnologiyalar bilan bog'liq muhim masalalardan biri bu bioetika va huquqiy normalardir. Ayrim texnologiyalar (masalan, surrogatlik, embrion donorligi) axloqiy va diniy jihatdan bahsli bo'lib, turli mamlakatlarda turlicha yondashuv mavjud. Islom huquqshunoslari sun'iy urug'lantirishni faqat nikoh doirasida ruxsat etilgan deb biladilar. Surrogatlik esa ko'pgina musulmon jamiyatlarda nomaqbul hisoblanadi.

Yevropa davlatlarida RTga oid qat'iy qonunchilik mavjud bo'lib, donorlik anonimligi, surrogatlikning ruxsat etilishi yoki taqiqlanishi aniq belgilangan. Embrionlarning huquqiy maqomi, ularning saqlanish muddati va yo'q qilinishi jarayoni esa alohida nazoratni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Reproduktiv texnologiyalar hozirgi zamonaviy tibbiyotning eng strategik va ayni paytda dolzarb, murakkab muhokamalarga sabab bo'layotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ular insoniyat oldida turgan sog'lom avlodni shakllantirish, irsiy kasalliklarning oldini olish, bepushtlik muammosini ilmiy asosda bartaraf etish kabi fundamental muammolarning yechimini taklif etmoqda. Ayniqsa, sun'iy urug'lantirish, in vitro urug'lantirish (IVF), genom tahriri kabi texnologiyalar tibbiy-biologik jarayonlarning chuqur o'rganilishi va ilg'or texnologik yutuqlar asosida shakllanib, amaliyotda samarali natijalarni bermoqda.

Mazkur texnologiyalarning keng miqyosda joriy etilishi nafaqat alohida shaxslar, balki butun jamiyat uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy va demografik ahamiyat kasb etadi. Aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, nikohdagi barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, tug'ilish ko'rsatkichlarining ortishiga hissa qo'shish orqali RTlar jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, bu sohadagi keskin texnologik taraqqiyotlar bilan bir qatorda yangi bioetik, huquqiy va diniy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, embrionlar bilan bog'liq eksperimentlar, donorlik, surrogat onalik, genetik tanlov kabi masalalar jiddiy muhokamalarni keltirib chiqarmoqda.

Shu sababli, reproduktiv texnologiyalarning qo'llanilishi nafaqat tibbiy mezonlarga, balki axloqiy, diniy va huquqiy asoslarga ham mos kelishini ta'minlash bugungi ilmiy-siyosiy kun tartibida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, bu borada qat'iy qonunchilik bazasini shakllantirish, ijtimoiy ong va madaniyat darajasini oshirish, RTlar haqida jamoatchilikka to'g'ri va tushunarli ma'lumot yetkazish muhim ahamiyatga ega.

Kelgusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari ushbu texnologiyalarning xavfsizligini ta'minlash, inson huquqlari va axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unligini mustahkamlash, shuningdek, ularni ijtimoiy jihatdan maqbullashtirishga qaratilishi lozim. Faqatgina shunda reproduktiv texnologiyalar nafaqat tibbiy innovatsiya sifatida, balki global ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobojonov, B. (2020). *Tibbiyot va bioetika: nazariy va amaliy jihatlar*. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
2. Xolmatova, Z. (2019). Sun'iy urug'lantirish texnologiyalarining tibbiy va ijtimoiy asoslari. *O'zbekiston tibbiyoti jurnali*, 4(2), 45–52.
3. Rasulov, A. (2021). Reproductiv huquqlar: xalqaro tajriba va O'zbekiston qonunchiligi. *Huquq va demokratiya*, 1(3), 76–84.
4. Abdullayeva, N. (2022). Reproductiv texnologiyalar: ijtimoiy ong va madaniyatdagi aks sado. *Sotsial fanlar jurnali*, 5(1), 101–108.
5. World Health Organization (WHO). (2021). *Global report on assisted reproductive technology (ART)*. Geneva: WHO Press.
6. Ethics Committee of the American Society for Reproductive Medicine (ASRM). (2020). Ethical considerations of ART. *Fertility and Sterility*, 113(2), 233–239.
7. UNESCO. (2017). *Universal Declaration on Bioethics and Human Rights*. Paris: UNESCO Publishing.